

**O'RTA ASRLAR SHARQ FALSAFASI TARIXIDA ILMIY BAHS
MUAMMOSI VA UNING ZAMONAVIY TAFAKKUR RIVOJIGA TA'SIRI.**

Turabova Sevara Kattaqulovna,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti

E-mail: turobova.sevara@mail.ru

[ORCID - 0000-0001-9028-6943](https://orcid.org/0000-0001-9028-6943)

Tel.: +998996762269

Annotatsiya: Maqolada O'rta asrlar musulmon Sharqining falsafasi va ilohiyotshunosligi tanqidiy-tahliliy jihatdan juda ko'plab muhim ilmiy, ijodiy ishlarga boy bo'lganligi, bahsning qarama-qarshi fikrlarni isbotlashning maxsus shakli, shuningdek, masalaning to'g'ri yechimini izlashning maqbul usuli sifatidagi o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ilmiy bahs, mantiq, dalil, isbot, madaniyat, islom, din, falsafa, ilm, g'alaba.

**ПРОБЛЕМА НАУЧНОГО СПОРА В ИСТОРИИ СРЕДНЕВЕКОВОЙ
ВОСТОЧНОЙ ФИЛОСОФИИ И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ
СОВРЕМЕННОЙ МЫСЛИ.**

Турабова Севара Каттакуловна,

доцент Термезского университета экономики и сервиса

E-mail: turobova.sevara@mail.ru

[ORCID - 0000-0001-9028-6943](https://orcid.org/0000-0001-9028-6943)

Тел.: +998996762269

Аннотация: В статье анализируется тот факт, что философия и теология Средневековья мусульманского Востока была богата многими важными научными и творческими трудами, состоящими из критических и аналитических аспектов, роли диспута как особой формы доказывания противоположных мнений, а также приемлемого метода поиска правильного решения проблемы.

Ключевые слова: научный спор, логика, аргумент, доказательство, культура, ислам, религия, философия, наука, победа.

THE PROBLEM OF SCIENTIFIC DISPUTE IN THE HISTORY OF MEDIEVAL ORIENTAL PHILOSOPHY AND ITS INFLUENCE ON THE DEVELOPMENT OF MODERN THOUGHT.

Turabova Sevara Kattakulovna

Associate Professor, Termez University of Economics and Service

E-mail: turobova.sevara@mail.ru

[ORCID - 0000-0001-9028-6943](https://orcid.org/0000-0001-9028-6943)

Tel.: +998996762269

Abstract. *The article analyzes the fact that the philosophy and theology of the Middle Ages of the Muslim East was rich in many important scientific and creative works, consisting of critical and analytical aspects, the role of dispute as a special form of proving opposing opinions, as well as an acceptable method of finding the right solution to the problem.*

Keywords: *scientific dispute, logic, argument, proof, culture, Islam, religion, philosophy, science, victory.*

KIRISH.

O'rta asrlar Sharq falsafasida ilohiyotshunoslik, patristika, apologetika va kalom ilmi doirasida argumentlashning turli usullari va tanqidiy uslublar ishlab chiqilib, bahs-munozaraning yangi strategiya va taktikalari joriy etila boshlangan. Bu davrda bahs-munozara yuritishning o'ziga xos tarzda tartib-koidalari mavjud bo'lganligini e'tirof etish lozim. Xususan, misol tariqasida «hujum-himoya» ko'rinishidagi bahs-munozara usuli yahudiylar, xristianlar va moniylar o'rtasida qadimdan davom etib kelayotgan munozaralarning eng ommaviysi bo'lgan. Islom dinining vujudga kelishi va mustahkamlanishi natijasida o'rta asrlar Sharq falsafasi ham G'arbdagi singari teotsentrik xususiyat kasb etdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

“Ilk xristianlar o'z e'tiqod (aqida)lariga oid masalalar xususida Iskandariya ko'chalarida va boshqa yerlarda o'zaro bahslarga uchragan bo'lsalar, musulmonlar ham ushbu masalalar xususida Bog'dod ko'chalari va boshqa yerlarda xristianlar kabi tortishuvlarda bo'lganlar”. [3; 4] Tanqidiylik va bahs-munozara qilish ruhiyati islom

olamining ilk bosqichlaridayoq markaziy o'rinni egallab kelgan. Shunga muvofiq Qur'onda ilm olish va fikrlashga oid ko'plab ko'rsatmalarga ro'para kelish mumkin. Masalan, muqaddas matn bo'lmish Qur'onda o'zining tahlil va tanqid qilish qobiliyatlaridan foydalanmaydigan kimsalar eng o'tkir iboralarda qoralangan. Xususan, Anfol surasining 22-oyatida "Allohning nazdida jonzotlarning eng yomoni bu aqlni ishlatmaydigan "kar" va "soqov"lardir" deyiladi. Shuningdek, Qur'onda bahsning axloqiy tamoyillariga oid ma'lumotlarga ham duch kelishimiz mumkin. Masalan, Ankabut surasining 46-oyatida «(Ey mo'minlar), sizlar ahli Kitob bilan faqat eng chiroyli yo'sinda mujodala-munozara qilinglar» [1; 281], – deyilgan. Nahl surasining 125-oyatida esa «..Ular (siz bilan talashib-tortishadigan kimsalar) bilan eng go'zal yo'lda mujodala-munozara qiling» [1; 402], – deyiladi. Islomda taqdirga ishonish va iroda erkinligi masalalari ham jiddiy bahslarga sabab bo'lib kelgan. Qur'onda har ikki holatga ham muvofiq keladigan va bunday fikrlarni mustahkamlaydigan oyatlarni topish mumkin edi. Islom dinining ilk bosqichlarida Olloh o'z bandasining taqdiri va xatti-harakatlarini oldindan belgilab qo'ygan, degan e'tiqod rasm bo'lgan edi. Tabiiyki, bunday holat, Qur'oni Karimda ko'rsatilganidek, bandaning o'z qilmishlari uchun javobgarligi va qilgan gunoh ishlari uchun Olloh tomonidan jazolanishi haqidagi aqidalarga zid kelar edi. Avvaliga unchalik anglanmagan bu kabi ziddiyatlar, keyinchalik ilohiyotchilarning diqqat-e'tiborini va fikrini borgan sari ko'proq torta boshladi. Xususan, jabariylar va qadariylar, xavorijlar va murjiylar, mutakallimlar va mu'taziliylar oqimlarining paydo bo'lishi ham muayyan darajada taqdir masalasi bo'yicha bahs-munozaralar natijasi, deb olib qaralishi mumkin. Ularning oldida islom diniga yangi xalqlarning kirishi orqali yuzaga kelgan muammolar ko'ndalang bo'la boshladi. Chunki madaniyati yuksakroq bo'lgan xalqlarning mantiqiy savollariga asosli va qoniqarli bo'lgan javob topish, shuningdek, islom dinining boshqa dinlardan afzalligini ko'rsatishda muqaddas kitoblar bilan kifoyalanibgina qolmay, shu bilan birga, ilgari surilayotgan g'oyalarni mantiqiy jihatdan isbot qilish hayot-mamot masalasiga aylangandi.

O'rta asrlar Sharq falsafasida bahs-munozara masalasini ilmiy ishlab chiqishga katta hissa qo'shgan faylasuf Abu Nasr ibn Muhammad Forobiydir. Abu Nasr

Forobiyning yozishicha, “Al-Jadal”, ya’ni dialektika atamasi qadimgi yunon faylasuflari Sokrat va Platon tomonidan qo‘llanilgan bo‘lib, ma’nosiga ko‘ra bahs, munozara yuritish orqali bahslashuvchining fikridagi ziddiyatlarni fosh etib, haqiqatga erishish demakdir”. [2; 405]

“Inson – deb yozadi Forobiy, – haqiqatga yoki falsafaga faqat dialektik bahs orqali erishishi mumkin”. [2; 405] Forobiy dialektikani bahsda g‘alaba qozonish uchun, insonni aniq bilimlarga asoslangan nazariy fan bilan shug‘ullanishga tayyorlash va kundalik hayotda to‘g‘ri qarorlar qabul qilish uchun zarur bo‘lgan «mashq san’ati» deb hisoblaydi. Forobiy dialektik bahsning “birinchi maqsadi rad etish bo‘lsa, isbotlash uning ikkinchi maqsadidir” [2; 364] deb yozadi. Isbotlashning dialektik metodi, Forobiy fikricha, “savol va javob usulidangina iborat bo‘lmay, balki bahs-munozara yuritishning strategiyasi va taktikasi hamdirki, buning natijasida muxolif ustidan g‘alaba qozoniladi”. [5; 104]

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ushbu maqolada mavzuni to‘liqroq yoritib berish uchun taqqoslash, analiz, sintez, germeneytika kabi ilmiy-tadqiqot metodlari va usullaridan foydalanilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

O‘rta asrlardagi ilmiy bahsning yorqin namunasi sifatida hisoblash matematikasi sohasida olimlar o‘rtasidagi tortishuvlarni ham ko‘rsatish mumkin. Matematika tarixidan ma’lumki, Al-Xorazmiy o‘z davrida hisoblashning mavjud “abak” metodiga zid bo‘lgan hisoblashning yangi yo‘nalishini yaratgan. “X-XII asrlarda Abak arifmetikasi va al-Xorazmiy nomi bilan bog‘liq hisoblash arifmetikasi o‘rtasidagi bu ilmiy kurash G‘arbiy Yevropada matematikaning rivojlanishida muhim rol o‘ynadi”. [6; 58]

Bahs olib borish san’ati xususida Abu Homid G‘azzoliyning mulohazalari ham ilmiy jihatdan nihoyatda qimmatlidir. G‘azzoliy “O‘rta asr Sharq, arab musulmon falsafasi, tasavvuf, shariat va islomni o‘zaro yarashtirish, umumiy sonsensus (murosai madora) yo‘lini topishning zarurligini birinchilardan bo‘lib tushunib yetgan, shu yo‘lni amalga oshirishda jiddi-jahd ko‘rsatgan” [7; 518] buyuk faylasuf va allomadir. Uning “Ihyou-ulumid din” (“Din ilmlarini jonlantirish”) risolasining I-qismi “Ilm kitobi” 7

bobdan iborat bo'lib, shundan 4 bobi faqat bahs-munozara olib borish tartib-qoidalarini va shartlariga bag'ishlangan. G'azzoliy islom dini va shariat asoslarini izchil himoya qilib, Aristotel, Forobiy, Ibn Miskavayh, Ibn Sinoni uchta muhim masalada dinga putur yetkazganliklarida, 17ta masalada dinning asoslariga shak keltirganliklarida ayblab, o'z tanqid va e'tirozlarini kalom ilmi va falsafiy usullar bilan mantiqiy asoslashga uringan. Ortodoksal islom nazariyotchisi sifatida G'azzoliy bahs-munozaraning sabablari va mohiyatini ilohiyot nuqtai nazaridan izohlaydi. Shunday bo'lsa-da, uning bahs olib borishda tomonlar rioya etishi lozim bo'ladigan qoidalar va axloqiy normalar haqidagi qarashlari zamonaviy epistemologiya nuqtai nazaridan hanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. G'azzoliy mushohada, bahs-munozara olib borishning sakkizta shartini batafsil izohlab berdi. Uningcha, munozara ishtirokchilari bu shartlarga rioya qilganlardagina bahsda haqiqatga erishish hamda ijobiy natijalar kutish mumkin. Sakkizta shartning dastlabki uchtasi bevosita ilohiyot masalasiga oid. Abu Homid G'azzoliyning ijodiy merosi nafaqat islom olamining, balki butun insoniyat ma'naviy merosining ajralmas qismidir. Shu bois ko'plab Sharq va G'arb olimlari uning diniy, falsafiy asarlarini tadqiq qilganlar. Biroq Yevropa va Rossiya olimlarining tadqiqotlarida G'azzoliyning mantiqiy qarashlari haqida to'liq ma'lumot berilmaydi. Yuqorida zikr etilgan Sharqning buyuk allomalarining izlanishlarini munosib davom ettirgan O'rta Osiyol olimlaridan biri Sa'duddin Ma'sud binni Umar Taftazoniydir. Taftazoniyning ijodiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, shunisi e'tiborliki, Umar Taftazoniy Amir Temur huzurida muntazam o'tkazilib turiladigan ilmiy bahslarda faol ishtirok etib kelgan. Uning fikricha, bahs yuritish tafakkurdagi xatoliklardan xalos qiladigan vosita bo'lishdan tashqari yangi bilimlar hosil qilish zamini hamdir. "Sa'duddin Taftazoniy islom falsafasi – kalomga mantiqiy xulosalarni tatbiq etib, ilohiyotning fan sifatida rivojlanishiga katta hissa qo'shgan" [7; 373] allomadir.

XULOSALAR.

Xulosa o'rnida shuni e'tirof etish kerakki, O'rta asrlar Musulmon Sharqi falsafasi va fanida ilmiy tafakkur tarzining shakllanishi, ilmiy ratsionallik normalarini ishlab chiqish va tadqiqotda tatbiq etilishi bilan belgilanadi. Bu davr falsafasi va

ilohiyotshunosligi tanqidiy-tahliliy tahlildan iborat bo'lgan juda ko'plab muhim ilmiy, ijodiy g'oyalarga boy bo'lgan. Xususan, jabariylar va qadariylar, xavorijlar va murjiylar, mutakallimlar va mu'taziliylar, Xorazmiy va Abak, Ibn Sino va Beruniy, G'azzoliy va Ibn Rushd o'rtasidagi bahs-munozaralar islom olamida odatiy holat hisoblangan. Biroq shunisi qiziqarlilik, juda kam miqdordagi ba'zi islohotchilik kayfiyatidagi olimlarni hisobga olmasak, negadir, hozirgi zamon musulmon dunyosida ilmiy bahs-munozara va tanqidchilik ruhiyati deyarli sezilmaydi. Bu borada professor Sh.Madayevaning "butun musulmon olami, xususan, Markaziy Osiyo ilm-fani XIV-XV asr uyg'onish davridan keyin, tom ma'noda, o'z ilmiy paradigmal tizimini yo'qotib qo'ydi" [4; 14] degan fikri o'rinlidir.

Adabiyotlar

1. Abdulaziz Mansur. "Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasi". – T.: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2012. (Nahl surasi, 125-oyat). – B. 402.
2. Аль-Фараби. Диалектика Историко-философские трактаты. Алма-Ата: Наука, 1985, – С.405.
3. Joseph Schacht/ Theology and Law in Islam // Theologi and Law in Islam. Edited by G.E.von Grunebaum/ – Otto Harrassowitz, Wiesbaden. 1971.–P.4.
4. Madayeva Sh. Oriyentalizm Sharq va G'arb dialogi tadqiqining metodi sifatida/Falsafiy madaniyatlar muloqoti(ilmiy maqolalar to'plam) – T.: NISHON-NOSHIR. 2014. – B.14.
5. Fayzixo'jayeva D. Abu Nasr al-Forobiy va Abu Ali Ibn Sino mantiqiy isbotlash haqida. –T.: Nishon-Noshir, 2013.– B.104.
6. Файзуллаев А.Ф. Возникновение и развитие понятия "алгоритм" В кн: Классическая наука в Средней Азии и современная мировая цивилизация. – Т.: Фан, 2000.– С.58.
7. O'rta asr Sharq allomalari va mutafakkirlari ensiklopediyasi. – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti, 2016. – B.373.